


Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasiga doir navbatdagi onlayn muloqot o'tkazildi



Shu yilning 20-avgustida "AIR da tinchlik o'rnatish jarayonida Markaziy va Janubiy Osiyo hamkorligi" mavzusidagi onlayn-konferensiya bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan Pokiston Yevroosiyo asri instituti bilan hamkorlikda tashkil qilingan ushbu tadbirda ikkala mamlakatning "aql markaz"lari va tadqiqot tuzilmalarining rahbarlari va yetakchi ekspertlari ishtirok etdi.

Muhokamaning asosiy mavzusini Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining AIR da tinch yashash va iqtisodiy tiklanish jarayonlaridagi roli va sa'y-harakatlari, shuningdek transmintaqaviy hamkorlik istiqbollari tashkil etdi.



Tadbirda so'zga chiqqan Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosari Akromjon Ne'matov shuni qayd etdiki, Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishish Markaziy va Janubiy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanish, transchegraviy hamkorlikning ulkan salohiyatini to'liq hajmda amalga oshirilishida strategik ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, Afg'onistondagi ko'p yillik mojaroning salbiy oqibatlarini o'z boshidan o'tkazayotgan Markaziy va Janubiy Osiy mamlakatlari afg'on xalqini tinchlik va farovonlikka intilishini qo'llab quvvatlash maqsadida kuchlarini birlashtirishni davom ettirishi zarur.

Ayni paytda, A.Ne'matovning fikricha, Afg'onistonda barqaror rivojlanishga erishish jarayonida keng qamrovli va uzoq muddatli O'zbekiston-Pokiston hamkorligini mustahkamlash muhim rol o'ynashi mumkin.

Afg'onistondagi tinchlik butun Yevroosiyo hududini yana-da rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda ijobiy turtki bo'ladi.

Ekspertning fikricha, keyingi yillarda O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning yuqori sur'ati mintaqalararo o'zaro bog'liqlikning katta salohiyatidan dalolat beradi. Jumladan, 2016-yildan boshlab, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 5 baravar o'sgan, Pokistondan O'zbekistonga keluvchi sayyohlar soni 12 baravar ko'paygan, faqat so'nggi 2 yil davomida O'zbekistonda Pokiston sarmoyasi bor korxonalar soni qariyb 2 baravar - 68 tadan 109 tagacha, O'zbekiston hudud bo'ylab Pokiston yuklarining tranziti 5 baravar oshgan.

A.Ne'matov shuni ta'kidladiki, asosiy e'tiborni Afg'oniston hududida infratuzilmaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va transport-logistikaga oid umumiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga yo'naltirish kerak, zero bu ushbu mamlakatning uzoq muddatli barqarorligiga va rivojlanishiga, O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasida mintaqalararo aloqalarni o'rnatishga ko'maklashadi.

Afg'onistonning tinch iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shishi mumkin bo'lgan asosiy loyihalar orasida Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor temir yo'li, Surxon-Puli-Xumri elektr uzatish tarmog'ining qurilishi, shuningdek, ularning mahsulotlari Afg'onistonga hamda boshqa Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlariga chiqarilishi mumkin bo'lgan "Termiz" va "Boysun-Farm" erkin iqtisodiy zonalar hududida qo'shma korxonalarining tashkil qilinishi ko'zda tutilga.

O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solish bo'yicha jiddiy xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlar ekan, Yevroosiyo asri instituti prezidenti Shahzod Takalviy shuni alohida ta'kidladiki, Pokistonda Prezident Sh.Mirziyoyevning Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishish bo'yicha tashqi siyosiy tashabbuslari yuqori baholanmoqda.



Jumladan, pokistonlik ekspertning fikricha, O'zbekiston Prezidenti tashabbusiga ko'ra tashkil qilingan Afg'oniston bo'yicha Toshkent konferensiyasi va uning natijalari bo'yicha qabul qilingan deklaratsiya xalqaro hamjamiyatning afg'on inqirozini hal qilish bo'yicha sa'y-harakatlarida yangi sahifa bo'lib, shuningdek afg'onlarni tinchlik muzokaralarini tashkil qilishda hozirgi amaliy natijalarga erishishga yo'l ochib berdi.

Irfon Takalviy so'zlariga ko'ra, Pokiston va O'zbekiston - bu Afg'onistondagi urush to'liq to'xtashi, barqarorlik va tinchlik o'rnatilishi uchun salmoqli say'-harakatlarni amalga oshirayotgan ikki mamlakatdir. Tinch va farovon Afg'oniston keng qamrovli, ko'p tomonlama transmintaqaviy hamkorlikka yo'l ochib beradi, Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasida "mintaqaviy ko'pri" bo'lib xizmat qiladi. Afg'onistonda tinchlik qaror topishi bilan, deb ta'kidladi Irfon Takalviy, butun mintaqa savdo aloqalari kengaytirilishi ne'matlaridan, odamlararo muloqotdan, sarmoya kirib kelishi samaralaridan bahramand bo'ladi. Oqibatda mintaqa ham Osiyo, ham umuman Yevroosiyo uchun rivojlanish lokomotiviga aylanadi.



Xalqaro munosabatlar axborot-tahliliy markaz bo'limining rahbari M.Husnitdinova konferensiya ishtirokchilari e'tiborini shunga qaratdiki, O'zbekiston tomoni, murakkab epidemiologik vaziyatga qaramay, mintaqa va Yevroosiyo mamlakatlarining mintaqaviy savdo va transport-logistika aloqalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha umumiy xatti-harakatlari tarafdoridir.

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi chegara shu yili barcha transport tashuvlari uchun ochiq bo'ldi. Shu tufayli o'zaro savdoning ijobiy dinamikasi saqlangan, shuningdek Afg'onistonga yetkazib beriladigan o'ta zarur tovarlar nomenklaturasi kengaydi. Jumladan, 2020-yilning birinchi yarmida Afg'oniston bilan tovar aylanmasi darajasi 24% ga o'sdi, va 332,9 mln. doll.ni tashkil etdi.

Temir yo'lda yuk tashish 50,7% ga ko'payib, 2,20 mln. tonnani tashkil etdi. Bu mazkur qo'shni davlatning normal hayotini ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Pokiston tomonidan Afg'oniston uchun tranzitning muvaffaqiyatli tiklanishi shunga umid qilish imkonini beradiki, O'zbekiston va Pokiston Afg'oniston hududi orqali savdo rivojlanishi va yuklar tranzitini jonlantirishi mumkin bo'ladi.

Ekspert ta'kidlaganidek, bu bizning ikki tomonlama hamkorligimizni rivojlantirishga, Afg'onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga yana-da samarali jalb qilinishiga, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro keng iqtisodiy hamkorlikni jonlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirishni yoqlab chiqar ekan, Pokiston global va strategik tadqiqotlar markazi Maslahatchilar kengashining a'zosi Said Nazir Moxmand shuni qayd etdiki, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlashda Termiz shahri muhim o'rin egallaydi.



Termizning rivojlangan transport-logistik va savdo-iqtisodiy infratuzilmasi, shuningdek uning qulay geografik joylashuvi ushbu shaharning Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi istiqbolli ko'priq sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi. Uning so'zlariga ko'ra, Termiz nafaqat o'zbekistonlik tadbirkorlar, balki Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston biznesmenlari uchun Afg'oniston va Janubiy Osiyoga darovoza bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Afg'onistondagi tinchlik jarayoniga ko'maklashishda Pokiston va O'zbekistonning "ishonchli hamkorlar" sifatida say'-harakatlarini birlashtirishning ahamiyatini taniqli pokistonlik jurnalist, VVS sharhlovchisi Taxir Xan ham ta'kidladi. Uning aytishicha, Islomobod va Toshkentni Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, shuningdek mintaqada o'zaro hamkorlik vositasida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha umumiy maqsadlar birlashtiradi. Pokiston va O'zbekiston Afg'onistondagi tinchlik jarayoni nuqtayi nazaridan bir tomonma turadi. Ham Toshkent, ham Islomobodning fikricha, afg'on mojarosini harbiy yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi, afg'onlararo yarashuv jarayoni esa tashqi aralashuvlarsiz yoki bosimsiz sodir bo'lishi kerak.



Muxammad Taxir Xan soʻzlariga koʻra, bunda afgʻonlararo muloqot ishtirokchilarining aksariyati orasida ushbu mamlakatlarning obroʻsi katta.

Umuman olganda, ekspertlar shu fikrga keldiki, xalqaro hamjamiyat va mintaqa davlatlarining xatti-harakatlarini birlashtirish Afgʻonistondagi tinchlik jarayonini ilgari surishda asosiy omil hisoblanadi. Ayni paytda Afgʻonistonda tinchlik oʻrnatilishida koʻp qirrali Oʻzbekiston-Pokiston hamkorligi muhim rol oʻynashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan konferensiya ishtirokchilari Afgʻonistonda uzoq muddatli barqarorlikka va farvonlikka erishishda, ushbu mamlakatni Janubiy va Markaziy Osiyo oʻrtasidagi “yer usti” koʻprigiga aylantirishda oʻzaro sayʻ-harakatlarni birlashtirish zarurligii taʼkidladi.

Boʻlib oʻtgan anjuman Pokistonning yetakch OAV da keng ijobiy fikrlarni uygʻotdi. Afgʻonistonda tinchlik oʻrnatish boʻyicha navbatdagi Oʻzbekiston-Pokiston konferensiyasining oʻtkazilishini sharhlar ekan, Pokistonning yetaksi “Islamabad Post” nashri shuni taʼkidlaydiki, ijobiy mintaqaviy yondashuv, va xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda umumiy xatti-harakatlar Afgʻonistondagi tinchlik jarayonini ilgari surish yoʻlida saqlab kelayotgan qator masalalar va toʻsiqlarga eng yaxshi javob boʻladi.

Ayni paytda “*Diplomatic News Agency*” sharhlovchilari shuni taʼkidlaydiki, Oʻzbekistonning mintaqa bilan avtomobil va temir yoʻl aloqalarini mustahkamlash boʻyicha tashabbuslari, energiya taʼminoti loyihalarining ilgari surilishi, gumanitar yordam koʻrsatilishi va Afgʻonistondagi rivojlanishga koʻmaklashish qoʻshni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga xizmat qilishi bilan birga, transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishga ham koʻmaklashadi.

The conference received a wide positive response in the leading Pakistani media. Commenting on the holding of the next Uzbek-Pakistani conference on the Afghan peace settlement, the leading Pakistani publication Islamabad Post notes that a positive regional approach and joint efforts to combat international terrorism are the best response to the remaining number of issues and obstacles to the advancement of the Afghan peace process.

At the same time, according to the observers of the *Diplomatic News Agency*, specific initiatives of Uzbekistan to strengthen road and rail links between Uzbekistan and the region, the promotion of energy supply projects, the provision of humanitarian assistance and assistance in the development of Afghanistan contribute not only to the socio-economic recovery of the neighboring country, but also to the development trans-regional cooperation.

Manba